MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANUVCHILARNI IJTIMOIYLASHTIRISH JARAYONIDA JAMIYATDAGI QADRIYATLAR, XULQ-ATVORLARNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Xursanova Matluba G‘anisher qizi
Termiz Davlat Universitetining pedagogika Instituti
Termiz, O‘zbekiston
https://doi.org/10.5281/zenodo.22824173

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashuv jarayonida jamiyat qadriyatlari va xulq-atvor me’yorlarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, o‘yin faoliyati, oila bilan hamkorlik va pedagogik metodlarning o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqot natijalarida ijtimoiylashuv jarayonining samaradorligini oshirish yo‘llari va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: ijtimoiylashuv, qadriyatlar, xulq-atvor, maktabgacha ta’lim, tarbiya, o‘yin faoliyati, hamkorlik.

Abstract. This article examines the issues of forming social values and behavioral norms in the process of socialization of preschool children in educational institutions. The role of play activities, family cooperation, and pedagogical methods in developing social skills and instilling national and universal values is analyzed. Based on the research results, practical recommendations to improve the effectiveness of the socialization process are proposed.
Key words: socialization, values, behavior, preschool education, upbringing, play activity, cooperation.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы формирования общественных ценностей и норм поведения в процессе социализации воспитанников дошкольных образовательных учреждений. Анализируется роль игровых форм деятельности, семейного взаимодействия и педагогических методов в развитии социальных навыков, усвоении национальных и общечеловеческих ценностей. По результатам исследования выработаны практические рекомендации по повышению эффективности процесса социализации.
Ключевые слова: социализация, ценности, поведение, дошкольное образование, воспитание, игровая деятельность, сотрудничество.

Kirish. Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar bugungi kunda bolalarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Shu boisdan maktabgacha ta’lim tashkilotlari bolalarni ijtimoiylashuv jarayoniga tayyorlashda, ularni jamiyat qadriyatlari va xulq-atvor me’yorlari asosida tarbiyalashda alohida o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida barcha ta’lim bosqichlarini modernizatsiya qilish, ayniqsa, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Chunki har qanday jamiyat taraqqiyoti, uning a’zolarining bolalikdan boshlab qanday ta’lim-tarbiya olganiga bog‘liqdir. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy, aqliy va ma’naviy kamoloti uchun qulay shart-sharoitlar yaratish muhim vazifa sanaladi. Yurtimizda

ta’limning bu bosqichiga qaratilayotgan e’tibor sifatida 2022-yil 15-noyabr sanasida Toshkent shahrida kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish masalalari bo‘yicha jahon konferensiyasi bo‘lib o‘tdi va bu konferensiyaga O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashrif buyurdi. «Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e’tibor va amaliy g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularni jismoniy va ma’naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o‘zligini to‘la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratayapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo‘lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig‘i bilan qaytishiga shubha yo‘q», – dedi Shavkat Mirziyoyev[1].

Konferensiya dunyoda 2023- yilga qadar maktabgacha ta’lim sohasiga oid siyosatni belgilab olish va bu boradagi xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan. Unda YuNeSKO Bosh direktori Odri Azule, 150 ga yaqin mamlakatdan vazirlar va vakillar, xalqaro tashkilotlar mutasaddilari qatnashdi. Hozirgi kunda bu islohotlar tizimli va uzluksiz davom etib kelmoqda.

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili**

- Ijtimoiylashuv masalasi xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. J. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasi bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘yin jarayonida egallashini ko‘rsatadi[3]. L.S. Vygotskiy esa “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasida bola jamiyatdagi qadriyatlarni kattalar bilan hamkorlikda egallashini asoslagan[2].

O‘zbekistonlik pedagog va psixologlar ham mazkur masalaga e’tibor qaratishmoqda. Jumladan, A. Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat masalasidir”[3], deya ta’kidlab, qadriyatlar va xulq-atvorni shakllantirishda tarbiyaning o‘rni beqiyos ekanligini ko‘rsatgan.

So‘nggi yillarda maktabgacha ta’limda milliy qadriyatlarni singdirish, bolalarni ijtimoiy muhitga tayyorlash bo‘yicha ko‘plab ilmiy maqolalar chop etildi. Ularning tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘yin, muloqot va pedagogik hamkorlik bolani ijtimoiylashuvga olib boruvchi asosiy vositalardir.

- **Tadqiqot metodologiyasi**

Inson, uning har tomonlama uygun kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan isloxotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual me’rosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va tehnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir[5].

Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy rivojlanishini umumiy tasir omillarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Umumiy manoda ijtimoiylashuv-bu o‘quvchining jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalarini o‘zlashtirish jarayoni. Ijtimoiylashuv-bu butun hayot davomida davom etadigan doimiy jarayon. Maktabgacha yoshdagi bolalikda bu birinchi navbatda ijtimoiy hayot normalarini o‘zlashtirishdir. Bolaning ijtimoiy rivojlanishida etakchi o‘rinni o‘z xalqining axloqiy qadriyatlarini o‘zlashtirish va keyinchalik umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni bilish va egallash egallaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy xulq-atvori tajribasi kattalar bilan muloqot jarayonida shakllanadi va tengdoshlari bilan turli xil qo‘shma tadbirlar va munosabatlarda mustahkamlanadi[6].

Maktabgacha ta’lim tizimida davlat dasturlarini ishlab chiqish va ta’lim-tarbiya jarayoniga yo‘naltirish juda muhum hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiylashtirish jarayonida milliy qadriyatlar va an’analarga mos holda tarbiyalash juda muhum masaladir.

2025-yilda nashr etilgan “ Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining 3-nashrida esa bu qadriyatlar alohida bob sifatida kiritildi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining uchinchi nashri O‘zbekistonda maktabgacha ta’limni rivojlantirishda muhim qadam hisoblanadi. Ushbu dasturning uchinchi nashri milliy merosni va global yondashuvlarni uyg‘unlashtirgan holda bolalarni barqaror, muvozanatli, mantiqiy fikrlaydigan va kompetentli shaxs sifatida shakllanishini ta’minlaydi. O‘quv dasturi bolaning har tomonlama jismoniy, ijtimoiy-emotsional, kommunikativ (nutq, muloqot, o‘qish va yozish ko‘nikmalari), bilish va ijodiy rivojlanishini o‘zaro bog‘liq va integratsiyalashgan ta’lim yondashuvlari asosida qo‘llab-quvvatlaydi. O‘zbekistonda maktabgacha ta’limning milliy va yuqori darajadagi xalqaro standartlarga muvofiqligini kafolatlash, bolalarni rasman maktab ta’limi bosqichida va hayoti davomida muvaffaqiyatli o‘rganishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar bilan ta’minlash maqsadida Umuminsoniy, Milliy, Shaxsiy, Ta’limiy va Ekologik Qadriyatlar kiritildi[7].

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi mas’uliyatli, axloqiy va jamiyatda faol ishtirok etuvchi shaxslarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan asosiy qadriyatlarga asoslanadi. Ushbu qadriyatlar milliy o‘zlikni anglash va o‘ziga xoslikni hurmat qilishni, global fuqarolikni, shaxsiy mas’uliyatni, ekologik barqarorlikni va hayoti davomida o‘qishga qiziqishni shakllantiruvchi asosiy tamoyil bo‘lib xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiylashtirish jarayonlarida milliy qadriyatlarni singdirishda bir qancha metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

- **Kuzatuv** – maktabgacha ta’lim tashkilotidagi bolalarning kundalik faoliyatini kuzatish;
- **Suhbat** – tarbiyachilar va ota-onalar bilan suhbat o‘tkazish;
- **Pedagogik tajriba** – bolalarga qadriyatlarni singdirishda rolli o‘yinlar va jamoaviy mashg‘ulotlarni sinov tariqasida qo‘llash yuqori matijaga erishish imkonini beradi.

Quyida tadqiqotimiz davomida aniqlangan Maktabgacha yoshdagi bolalarda qadriyatlarni shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar va ularni amalga oshirish yo‘llarini jadval ko‘rinishida ifodaladik.

Jadval: Maktabgacha yoshdagi bolalarda qadriyatlarni shakllantirish omillari va yo‘llari

№	Omil nomi	Ta’sir doirasi	Amalga oshirish shakli
1	O‘yin faoliyati	Ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish	Rolli o‘yinlar, sahna ko‘rinishlari
2	Oila bilan hamkorlik	Qadriyatlarni mustahkamlash	Ota-onalar ishtirokidagi tadbirlar
3	Milliy qadriyatlarni singdirish	Axloqiy fazilatlarni shakllantirish	Ertak, maqol, xalq og‘zaki ijodi
4	Tarbiyachining shaxsiy namunasi	Odob-axloq, xulqiy madaniyat	Kattalarning xulqini kuzatish va takrorlash
5	Zamonaviy texnologiyalar	Bilim va malakani mustahkamlash	Multimediali o‘yinlar, interaktiv doska

- **Tahlil va natijalar**

Tadqiqotimiz jarayonida amalga oshirilgan va tanlangan metodlar orqali erishilgan natijalar yuqori ko‘rsatkichlarni namoyon etish biz tanlagan metodlar to‘g‘ri ekanligi ko‘rsatadi. Jumladan; O‘yin faoliyati – bolalar o‘yin orqali turli ijtimoiy rollarni sinab ko‘rdi. Masalan, “oilaviy o‘yinlar”da ota-ona, shifokor, o‘qituvchi kabi rollar bajarilib, jamiyatdagi qadriyatlar amaliy shaklda o‘zlashtirildi. Milliy qadriyatlarni singdirish – ertaklar, maqol va

topishmoqlar orqali bolalarga halollik, mehr-shafqat, hamjihatlik kabi fazilatlar singdirildi. Oila bilan hamkorlik – ota-onalar ishtirokida o‘tkazilgan tadbirlar bolalarda ijtimoiy me’yorlarni mustahkamlashga yordam berdi.Pedagogik usullar – tarbiyachilarning shaxsiy namunasi, rag‘batlantirish metodlari bolalarda odob, muloqot madaniyati va mas’uliyatni shakllantirishda muhim omil bo‘ldi.

- **Xulosa va takliflar**

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashuv jarayonida jamiyat qadriyatlari va xulq-atvorini shakllantirish — ularning kelajakda barkamol shaxs sifatida voyaga yetishining kafolatidir. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni ijtimoiylashuv jarayonida jamiyat qadriyatlari va xulq-atvor me’yorlarini shakllantirish kompleks yondashuvni talab qiladi. O‘yin faoliyati, oila bilan hamkorlik, milliy qadriyatlarni singdirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish — barchasi birgalikda samarali natija beradi. Yuqoridagi fikrlar va o‘rganishimiz natijasida quyidagi takliflarni keltirib o‘tmoqchimiz:

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiyaviy faoliyatlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘un holda qo‘llash.

2. Ota-onalar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, ular uchun psixologik-pedagogik seminarlar o‘tkazish. Oilaviy qadryatlarni farzandlariga singdirish yo‘llari haqida tushuncha beruvchi qo‘llanmalar yaratish.

3. Tarbiyachilar uchun “Ijtimoiylashuv psixologiyasi” bo‘yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

- **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Mirziyoyev Sh.M. “YUNESKOning erta yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish bo‘yicha II Butunjahon konferensiyasi” ochilish marosimida so‘zlagan nutqidan 2022-yil
2. Vygotsky L.S. Thought and Language. – MIT Press, 1986.
3. Piaget J. The Moral Judgment of the Child. – New York: Free Press, 1965.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma’naviyat, 1992.
5. Asqarova D.Q. “Bolalalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi” o‘quv qo‘llanma Toshkent-2020 33-b
6. Sayipnazarova M “Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi” SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 3 | 2022-yil 247-b.
7. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi(3-nashri)Toshkent-2025-yil
8. Qodirova F.R. Maktabgacha ta’limda ijtimoiy tarbiya masalalari. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2020. 226-b.
9. Sharipova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda qadriyatlarni shakllantirish. – Pedagogika jurnali, 2021, №3.178-b
10. Tojiddinovna, I. F. A. “Maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarning ijtimoiy moslashuvi” Multidisciplinary Journal of Science and Technology,2024-yil 4(3), 590-595-b